



Sinov va kalibrash laboratoriyalarini
akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha
qo'llanma

O'ZAK.R-08

Sahifa: 1/22

Tahrir: 03-00

Joriy etish sanasi: 06.10.2025

**SINOV VA KALIBRLASH LABORATORIYALARINI
AKKREDITATSIYADAN O'TKAZISH BO'YICHA
QO'LLANMA**



MUNDARIJA

1. Maqsad va qo'llash sohasi	3
2. Havolalar	3
3. Terminlar, ta'riflar va qisqartirishlar	4
4. Umumiy ma'lumotlar	4
5. Laboratoriyalarning kompetentligini baholash	4
G 4. Umumiy talablarni baholash	5
G 5. Tuzilmaga qo'yiladigan talablar	6
G 6. Resurslarga qo'yiladigan talablar	6
G 7. Jarayonga qo'yiladigan talablar	9
G 8. Menejment tizimiga qo'yiladigan talablar	16
O'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazish varag'i	22



O‘ZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI

Sinov va kalibrash laboratoriyalarini
akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha
qo‘llanma

O‘ZAK.R-08

Sahifa: 3/22

Tahrir: 03-00

Joriy etish sanasi: 06.10.2025

1. Maqsad va qo‘llash sohasi

1.1 Ushbu Qo‘llanma ISO/IEC 17025 “Sinash va kalibrash laboratoriyalarining kompetentligiga qo‘yiladigan talablar”, APAC, ILAC va O‘zbekiston akkreditatsiya markazi (keyingi o‘rinlarda – Markaz) hujjatlari talablariga muvofiq sinov va kalibrash laboratoriyalarini, shuningdek, putur yetkazmasdan tekshirish laboratoriyalarini (keyingi o‘rinlarda – Laboratoriyalar) akkreditatsiyadan o‘tkazishga yagona va kelishilgan yondashuvni ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2 Hujjat akkreditatsiya jarayoniga jalb etilgan Markaz xodimlari, akkreditatsiyadan o‘tkazilgan Laboratoriyalar hamda Laboratoriyalar mutaxassislari tomonidan akkreditatsiyaga tayyorgarlik ko‘rishda, akkreditatsiya sohasini kengaytirishda akkreditatsiya sohasini dolzarblashtirish, qisqartirishda (keyingi o‘rinlarda – akkreditatsiya jarayoni) qo‘llaniladi.

2. Havolalar*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-apreldagi 349-son qarori bilan tasdiqlangan Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom).

ISO/IEC 17000 Muvofiqlikni baholash. Lug‘at va umumiy prinsiplar.

ISO/IEC 17011 Muvofiqlikni baholash. Akkreditatsiyadan o‘tkazish organlariga, muvofiqlikni baholash bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tkazuvchi organlarga qo‘yiladigan talablar.

ISO/IEC 17025 Sinov va kalibrash laboratoriyalarining kompetentligiga qo‘yiladigan umumiy talablar.

ISO/IEC 17043 Muvofiqlikni baholash. Malakani tekshirishga qo‘yiladigan umumiy talablar.

ISO 9712 Putur yetkazmasdan tekshirish. Putur yetkazmasdan tekshirish xodimlari darajasini belgilash va ularni sertifikatlashtirish.

ILAC P9 Malakani tekshirish bo‘yicha faoliyatda ishtirok etish yuzasidan ILAC siyosati.

ILAC P10 O‘lchash natijalarini metrologik kuzatib borish bo‘yicha ILAC siyosati.

ILAC P14 Kalibrashda o‘lchashlarning noaniqligiga nisbatan ILAC siyosati.

ILAC G8 Qarorlarni qabul qilish qoidalari va muvofiqlik to‘g‘risidagi arizalar bo‘yicha qo‘llanma.

ILAC G17 Test sinovini o‘tkazishda o‘lchashlarning noaniqligi bo‘yicha ILAC qo‘llanmasi.

ILAC G24 O‘lchash asboblarini kalibrash oraliqlarini aniqlash bo‘yicha qo‘llanma.

O‘ZAK.P-07 Muvofiqlikni baholash organlari akkreditatsiya sxemalari bo‘yicha siyosat.

O‘ZAK.P-10 Ariza beruvchilar va akkreditatsiyadan o‘tkazilgan laboratoriyalarning malakani tekshirish va laboratoriyalararo qiyoslashlarda ishtirok etishiga nisbatan siyosat.

O‘ZAK.P-11 O‘lchash natijalarini metrologik kuzatish natijalarini ta‘minlash bo‘yicha siyosat.

O‘ZAK.P-12 O‘lchashlarning noaniqligi bo‘yicha siyosat.

O‘ZAK.R-02 Noaniqliklarni tasniflash bo‘yicha qo‘llanma.

O‘ZAK.R-12 Usullarning validatsiyasi va verifikatsiyasi bo‘yicha qo‘llanma.

O‘ZAK.Y-01 Akkreditatsiya sohasi shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha yo‘riqnoma.

O‘ZAK.Y-02 Buyurtmalar va ariza beruvchilar/akkreditatsiya obyektlari to‘g‘risidagi ilova qilinadigan ma‘lumotlarni to‘ldirish bo‘yicha yo‘riqnoma.

O‘ZAK.Y-07 Ariza beruvchilar va akkreditatsiyadan o‘tkazilgan laboratoriyalarning malakani tekshirish va laboratoriyalararo qiyoslashlarda ishtirok etishi bo‘yicha siyosatni amalga oshirish bo‘yicha yo‘riqnoma.

O‘ZAK.Y-09 Sinov va kalibrash laboratoriyalarini baholash obyektlarini tanlash bo‘yicha yo‘riqnoma.

* Sana ko‘rsatilgan havolalar uchun faqat keltirilgan nashr amal qiladi. Sana ko‘rsatilmagan havolalar uchun havola qilingan hujjatning so‘nggi nashri (shu jumladan har qanday tuzatishlar) qo‘llaniladi.



3. Terminlar, ta’riflar, qisqartirishlar

3.1 Ushbu Qo‘llanmada ISO/IEC 17000 va Nizomga muvofiq terminlar va ta’riflar qo‘llaniladi, shuningdek:

Laboratoriya faoliyati: faoliyatning uchta turini o‘z ichiga oladigan faoliyat:

- sinash;
 - kalibrlash;
 - keyinchlik o‘tkaziladigan sinash va kalibrlash bilan bog‘liq bo‘lgan namunalarni tanlash.
- APAC – Osiyo-Tinch okeani akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha hamkorlik.
ILAC – Laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha xalqaro hamkorlik.
LQ – laboratoriyalararo qiyoslash.
PPK – malakani tekshirish dasturi.
SN – standart namuna.
SO – sertifikatlashtirish organi.
PET – putur yetkazmasdan tekshirish.

4. Umumiy ma’lumotlar

4.1 Nizomning 2-bobida ko‘rsatilgan akkreditatsiyadan o‘tish shartlari va talablari bajarilishini namoyish qilish maqsadida va akkreditatsiya tartib-taomilidan o‘tish uchun Laboratoriya O‘ZAK.Y-02 yo‘riqnomasiga muvofiq Markazga quyidagi hujjatlar turkumini taqdim etadi:

- O‘ZAK.Y-02.SL shakl bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tishga buyurtma – sinov laboratoriyalari uchun, O‘ZAK.Y-02.KL – kalibrlash laboratoriyalari uchun va O‘ZAK.Y-02.PT – PET laboratoriyalari uchun;

- O‘ZAK.Y-01.F01/SL shakl bo‘yicha akkreditatsiya sohasi loyihasi – sinov laboratoriyalari uchun, O‘ZAK.Y-01.F01/KL – kalibrlash laboratoriyalari uchun va O‘ZAK.Y-01.F01/PT – PET laboratoriyalari uchun;

- ISO/IEC 17025 standarti talablariga muvofiq menejment tizimining sifat (mavjud bo‘lganda) va tartib-taomil hujjatlari bo‘yicha qo‘llanma;

- quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi ma’lumotlar:

a) sinov laboratoriyalari uchun:

O‘ZAK.Y-02.SL-F01. Resurslar bilan taminlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.SL-F02. Xodimlar to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.SL-F03. Xonalar to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.SL-F04. Uskunalar to‘g‘risida ma’lumotlar.

b) kalibrlash laboratoriyalari uchun:

O‘ZAK.Y-02.KL-F01. Resurslar bilan taminlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.KL-F02. Xodimlar to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.KL-F03. Xonalar to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.KL-F04. Uskunalar to‘g‘risida ma’lumotlar.

c) PET laboratoriyalari uchun:

O‘ZAK.Y-02.PT-F01. Resurslar bilan taminlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.PT-F02. Xodimlar to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.PT-F03. Xonalar to‘g‘risida ma’lumotlar;

O‘ZAK.Y-02.PT-F04. Uskunalar to‘g‘risida ma’lumotlar.

5. Laboratoriyalarning kompetentligini baholash

5.1 Mazkur bobda ISO/IEC 17025 standartining ayrim talablariga tushuntirishlar keltirilgan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZAK O‘ZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 5/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

5.2 Qo‘shimcha tavsiyalar va sharhlar “G” harfi bilan belgilangan, undan keyin ISO/IEC 17025 standartida talablarning tegishli bandini ko‘rsatuvchi raqam keladi.

G 4. Umumiy talablar

G 4.1 Xolislik

G 4.1.1 ISO/IEC 17025ga muvofiq Laboratoriyalar o‘z tuzilmasini tashkil etishda laboratoriya faoliyatini amalga oshirish davomida xolislikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tijoriy, moliyaviy va boshqa omillarni hisobga olishi kerak.

Masalan:

Xolislikka xavfni eng kam darajaga keltirish uchun laboratoriyaning:

- mahsulotlarning sertifikatlashtirilgan sinovini amalga oshiruvchi tuzilmasi va boshqaruvi o‘z faoliyatini shunday tarzda amalga oshirishi kerakki, laboratoriya boshlig‘i SO rahbarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvda bo‘lmasligi kerak;
- korxonalarda mahsulotlarni sinaydigan va o‘lchash vositalarini kalibraydigan tuzilmasi va boshqaruvi o‘z faoliyatini shunday tarzda amalga oshirishi kerakki, laboratoriya boshlig‘i ishlab chiqarish sektori rahbarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunuvda bo‘lmasligi kerak.

G 4.1.2 Laboratoriyalar rahbariyati o‘z zimmasiga xolislikni ta’minlash to‘g‘risida majburiyat oladi. Ushbu majburiyat hujjatlashtirilgan siyosat, deklaratsiya, shuningdek, korxonaning muassislari va rahbari bilan tuziladigan bitim bilan rasmiylashtirilishi mumkin.

G 4.1.3 Laboratoriya ISO/IEC 17025 standartining 8.5-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan tartib-taomilga muvofiq o‘zining xolisligiga ta’sir ko‘rsatadigan xavf-xatarni (ichki va tashqi) identifikatsiya qiladi va baholaydi.

G 4.1.4 Xavf-xatar aniqlangan taqdirda, uni kam darajaga keltirish yoki bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek, ushbu xavf-xatar, shu jumldan, laboratoriya faoliyati o‘zgaranda zarur tarzda bartaraf etilganligini yoki nazorat qilinayotganligini kafolatlash uchun monitoring va tahlil o‘tkazilishi zarur.

G 4.1.5 Laboratoriya xavf-xatarni identifikatsiyalash va ularni bartaraf etish yoki kam darajaga keltirishni yozib boradi. Xavf-xatarni bartaraf etish yoki kam darajaga keltirish tartibi ISO/IEC 17025 standartining 8.5-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan tartib-taomil bilan belgilanadi.

G 4.2 Maxfiylik

G 4.2.1 Laboratoriyalar shartnomaviy majburiyatlar (mijozlar, xodimlar bilan tuziladigan) va/yoki korxonalar bo‘yicha bo‘yruqlar shartlari bo‘yicha buyurtmachi uchun ishlari bajarish davomida kuzatiladigan yoki shakllanadigan maxfiy axborotni saqlash bo‘yicha javob beradi.

Laboratoriyalar hammabop axborot ro‘yxatini belgilashi kerak va ushbu ro‘yxat erkin foydalanish uchun joylashtirilishidan oldin bu haqda oldindan Buyurtmachini xabardor qiladi.

Ushbu ro‘yxatga kiritilmagan axborot maxfiy hisoblanadi.

G 4.2.2 Qonunchilikka va shartnomaviy majburiyatlarga muvofiq Laboratoriya maxfiy axborotni oshkor qiladi, buning uchun unga Buyurtmachini yoki boshqa manfaatdor shaxsni (masalan, tuzilgan Shartnoma bo‘yicha Buyurtmachining mijozini) xabardor qilish to‘g‘risidagi mexanizmga ega bo‘lish zarur.

Izoh: “qonunchilik, majburiyatlar bilan” deganda huquqni muhofaza qilish organlari, texnik jihatdan tartibga solish sohasida Qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta’minlash departamenti tushuniladi, “shartnomaviy majburiyatlar” deganda esa Markaz bilan tuziladigan akkreditatsiyadan keyingi shartnoma tushuniladi.

G 4.2.3 Laboratoriyalar manba va laboratoriya o‘rtasida maxfiy hisoblanadigan ushbu axborot manbaidan olingan laboratoriya buyurtmachisi to‘g‘risidagi axborotga ishlov berish mexanizmiga ega bo‘lishi kerak.

G 4.2.4 Laboratoriyalar maxfiy axborotga rioya qilish bo‘yicha talablarni o‘z xodimlariga, pudratchilarga, mahsulotlar va/yoki xizmatlarning tashqi yetkazib beruvchilariga, aniq laboratoriya faoliyatiga jalb qilinadigan xodimlarga yetkazish tartibini belgilashi zarur.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 6/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

G 5. Tuzilmaga qo‘yiladigan talablar

G 5.1 Laboratoriya (yoki u tegishli bo‘lgan tashkilot) yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjatlarga (Ustav, Nizom, shtat jadvali va shu kabilar) muvofiq o‘z faoliyati uchun javob beradi.

G 5.2 Laboratoriya rahbariyati – bu Laboratoriya akkreditatsiyaga ega bo‘lishi va uni qo‘llab-quvvatlashi uchun zarur bo‘lgan siyosat, aktivlar va resurslarga nisbatan qaror qabul qilinishi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxs yoki organ. Laboratoriya rahbariyati tayinlanishining hujjatlashtirilgan isbotini taqdim etadi.

G 5.3 Laboratoriya faoliyati sohasi Markazning veb-saytida joylashtirilgan O‘ZAK.Y-01.F01/SL, O‘ZAK.Y-01.F01/KL va O‘ZAK.Y-01.F01/PT shakllarga muvofiq tasdiqlanadi.

G 5.4 Laboratoriya amalga oshiriladigan faoliyatning akkreditatsiyaning so‘ralgan sohasiga, shuningdek, o‘zining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan Laboratoriya faoliyatiga tegishli Markazning hujjatlariga muvofiqligini tasdiqlashi kerak.

G 5.5 Laboratoriyalar quyidagilarni taqdim etadi:

a) tashkilot (korxon) tuzilmasida Laboratoriyaning o‘rnini hamda tashkilot (korxon)ning laboratoriya faoliyatida ishtirok etadigan boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqasini ko‘rsatadigan tashkiliy sxema yoki ekvivalent hujjat shaklidagi tashkil etilgan tuzilma;

b) menejment tizimi hujjatlarida xodimlarning o‘zaro bir-birining o‘rnini bosishini belgilaydigan, o‘zaro bir-birini almashtirish hajmini tushuntiradigan va ularning kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

c) o‘z faoliyatini amalga oshirish barqarorligini va natijalarning ishonchligini ta‘minlash uchun standartning tegishli bo‘limlarida keltirilgan hujjatlashtirilgan tartib-taomillar. Ular hujjatlashtirishi kerak bo‘lgan daraja ularning murakkabligi, ulardan foydalanuvchilarning malakasi va tajribasi singari omillarga bog‘liqdir va tartib-taomillarni bajarish aks ettirilishi bilan ta‘minlanishi kerak.

G 5.6 Laboratoriyalar rahbariyati IEC/IEC 17025 standartining 5.6-bandida belgilangan funksiyalar uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlarni belgilashi kerak. Ushbu bandeda ko‘rsatilgan ko‘pchilik funksiyalar standartning oldingi versiyasida sifat bo‘yicha menejerga (yoki lavozimning shunga o‘xshash nomlanishiga) tayinlangan edi. Standartning yangi versiyasi ushbu funksiyalar bitta (yoki bir nechta) boshqa mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishiga yo‘l qo‘yadi, shuningdek, funksiyalar sifat bo‘yicha menejerga (yoki lavozimning shunga o‘xshash nomlanishiga) tayinlanishi mumkin.

Menejment tizimi uchun mas‘ul bo‘lgan kompetentli vakil Laboratoriyaning shtatdagi xodimi bo‘lishi kerak.

G 5.7 Qo‘shimcha talablar mavjud emas.

G 6. Resurslarga qo‘yiladigan talablar

G 6.1 Umumiy talablar

Qo‘shimcha talablar mavjud emas.

G 6.2 Xodimlar

ISO/IEC 17025 standartining 6.2.1–6.2.6-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) Laboratoriyalar O‘ZAK.Y-02.SL-F02, O‘ZAK.Y-02.KL-F02 va O‘ZAK.Y-02.PT-F02 shakl bo‘yicha laboratoriyalarning xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarda keltirilgan faoliyatning so‘ralgan sohasini bajarish uchun yetarlicha xodimlarga ega bo‘lishi kerak;

b) Laboratoriyalar xodimlari ishlarni to‘g‘ri bajarish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, texnik bilimlar, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lishi, o‘qitilgan bo‘lishi hamda chetga chiqishlarning ahamiyatini baholash uquviga ega bo‘lishi kerak;



OZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI

Sinov va kalibrash laboratoriyalarini
akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha
qo'llanma

O'ZAK.R-08

Sahifa: 7/22

Tahrir: 03-00

Joriy etish sanasi: 06.10.2025

Izoh:

1. PET laboratoriyalari xodimlari O'z DSt ISO 9712 talablariga muvofiq bo'lishlari kerak.
2. Laboratoriya rahbari hamda sinash/kalibrash sifatini boshqarish funksiyalarini bajaradigan shaxs Laboratoriyaning shtatdagi xodimi bo'lishi kerak.

c) Laboratoriya laboratoriya faoliyati natijalariga ta'sir ko'rsatadigan har bir funktsiya uchun kompetentlikka qo'yiladigan talablarni (shu jumladan, akkreditatsiyaning so'ralgan sohasiga muvofiq usullar va metodika, shuningdek, ISO/IEC 17025 standartining 6.2.6-bandida keltirilgan funktsiyalar uchun), shu jumladan, so'ralgan sohada ma'lumoti, malakasi, o'qitilganligi, texnik bilimlari, ko'nikma va tajribasiga tegishli talablarni hujjatlashtirishi kerak;

d) Laboratoriya xodimlarning kafolatligi, xodimlarni tanlash, ularni o'qitish, xodimlar ishini kuzatish, xodimlarga vakolatlar berish, xodimlar, shu jumladan, aniq harakatlarni bajarish, shu jumladan, usullarni ishlab chiqish, modifikatsiyalash, versifikatsiyalash va validatsiyalash vakolati berilgan xodimlar monitoringi; natijalarni, shu jumladan, muvofiqlik to'g'risidagi arizalarni yoki fikr va interpretatsiyani tahlil qilish; hisobot, natijalarni tahlil qilish va tasdiqlashga nisbatan tartib-taomilga ega bo'lishi va ularni yozib borishi kerak;

e) agar sertifikatlashtirish yoki kompetentlikni tasdiqlashning boshqa shakliga nisbatan qonunchilik, boshqa texnik reglamentlar, normativ hujjatlar talablari mavjud bo'lsa, laboratoriya faoliyatining tegishli turlarini bajaradigan xodimlar talab etiladigan (tegishli) tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

G 6.3 Xonalar va atrof muhit sharoitlari

G 6.3.1 ISO/IEC 17025 standartining 6.3.1–6.3.5-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda qo'llanilishi kerak:

a) Xonalar va atrof muhit sharoitlari O'ZAK.Y-02.SL-F03, O'ZAK.Y-02.KL-F03 va O'ZAK.Y-02.PT-F03ga muvofiq yuritiladigan va olingan natijalarning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak bo'lgan laboratoriya faoliyatini amalga oshirish uchun yaroqli bo'lishi kerak;

b) Laboratoriya laboratoriya faoliyati uning doimiy nazratidan tashqaridagi xonalarda amalga oshirilsa, bu haqda ma'lum qilishi, shuningdek, ushbu xonalar va atrof muhit sharoitlari standart talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlashi kerak;

c) Atrof muhit sharoitlarini nazorat qilish zarur bo'lganda ushbu maqsadlar uchun qo'llaniladigan o'lchov asbobi foydalanish uchun yaroqli, tekshirilgan yoki aniqlik ishonchlilikka ta'sir ko'rsatsa, kalibrangan va standartning 6.4.6-bandiga muvofiq foydalaniladigan bo'lishi kerak. Laboratoriya atrof muhit sharoitlarini ro'yxatdan o'tkazishi kerak.

d) Nazorat uzluksiz yoki faqat laboratoriya ishlarini bajarishda amalga oshirilishi mumkin. Nima bo'lganda ham istalgan holatda talablarga rioya qilish imkoniyati ta'minlanishi kerak;

e) Foydalanishni nazorat qilishni belgilaydigan holatlar laboratoriya zonalaridan foydalanishga, laboratoriya faoliyati maxfiy axborotni saqlashning mavjud mexanizmlari buzilishi ehtimoliga bog'liqdir;

f) Mikrobiologiyaga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirish yoki ifloslanishdan qochish uchun laboratoriya sinollari zonalarini taqsimlash (fizik yoki vaqtincha).

G 6.4. Asbob-uskunalar

G 6.4.1 ISO/IEC 17025 standartining 6.4.1–6.4.13-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to'liq qo'llaniladi:

a) har bir asbob-uskuna (shu jumladan, biroq ular bilan cheklanib qolmasdan o'lchash vositalari, dasturiy ta'minlash, etalonlar, standart namunalari, ma'lumotnoma ma'lumotlar, reaktivlar, sarflash materiallari yoki yordamchi qurilmalar) albatta identifikatsiyalanishi va O'ZAK.Y-02.SL-F04, O'ZAK.Y-02.KL-F04, O'ZAK.Y-02.PT-F04 shakllarga muvofiq Laboratoriya tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi kerak, agar ushbu talab laboratoriya faoliyatini amalga oshirishda noyob tarzda (kod,

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 O‘ZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 8/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

raqam bilan) bajarilmagan bo‘lsa (masalan, avtomatlashtirilgan tizimlardan, dasturiy ilovadan foydalanib);

b) asbob-uskunalarini ishlatish bo‘yicha texnik hujjatlar xodimlar uchun foydalanishga qulay va tushunarli bo‘lishi kerak (xorijiy tildagi hujjatlar to‘liq tarjima qilinishi yoki ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yo‘riqnomalar mavjud bo‘lgan ko‘chirma shalida bo‘lishi mumkin);

c) Laboratoriya, agar bu asbob-uskunani ishlatish bo‘yicha hujjatlarga yoki uning pasportiga muvofiq talab qilinsa, asbob-uskuna foydalanishga topshirilishidan oldin yoki foydalanishdan qaytarilgandan keyin belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydigan (verifikatsiya) yozuvlarni, ularning ta‘mirlanganligi, shuningdek, ayni shu paytgacha bajarilgan ularga texnik xizmat ko‘rsatilganligi haqidagi yozuvlarni saqlashi kerak;

d) o‘lchash natijalarining ishonchligiga ta‘sir ko‘rsatadigan asbob-uskunalar uchun kalibrash dasturini ishlab chiqish zarur. O‘lchaydigan asbob quyidagi hollarda kalibranishi kerak:

- o‘lchashning aniqligi va o‘lchashning noaniqligi taqdim etiladigan natijalarga ta‘sir ko‘rsatadi;

- asbob-uskunalarini kalibrash taqdim etiladigan natijalarni metrologik kuzatish uchun zarur.

Izoh. O‘lchash vositalarini kalibrashning davriyligini aniqlash uchun kalibrash dasturini ishlab chiqishda ILAC G24 hujjatiga hamda Metrologik tekshirilishi kerak bo‘lgan o‘lchash vositalari guruhiga (Adliya vazirligi 10.02.2025- yildagi 3606-son) amal qilish kerak.

e) Laboratoriya asbob-uskuna sozligiga va foydalanishga yaroqliligiga ishonch hosil qilish uchun ikkita izchil kalibrash o‘rtasida oraliq tekshirishlar o‘tkazishi, shuningdek, nosozliklarni o‘z vaqtida aniqlashi kerak. Ushbu tadbirlar standart namunalar (kalibrash standartlari), etalonlar, asbob-uskunani tekshirish uchun qo‘llaniladigan boshqa texnik vositalardan foydalangan holda malakali xodimlar tomonidan bajarilishi kerak, va, jumladan, taxmin qilinayotgan noaniqliklar to‘g‘risida yozib borilishi kerak. Ushbu tekshirishlar hujjatlashtirilgan tartib-taomillarga muvofiq amalga oshirilishi va erishilgan natijalar yozib borilishi kerak.

G 6.5 Metrologik kuzatuvchanlik.

G 6.5.1 ISO/IEC 17025 standartining 6.5.1-6.5.3-bandlari talablarini bajarishda ILAC P10 siyosatiga asoslangan (O‘ZAK.P-11) O‘lchashlar natijalarini kuzatib borish markazining siyosatiga amal qilish zarur.

G 6.5.2 Kompetentli ishlab chiqaruvchilar tomonidan taqdim etilgan sertifikatlashtirilgan standart namunalarning sertifikatlashtirilgan qiymatlaridan foydalangan holda asbob-uskunalarini o‘lchash natijalarini metrologik kuzatib borish talablarini qondirish usulini tanlash (xromatograflar, pH-metrlar va shu kabilar) sinov laboratoriyalari tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda, sinov laboratoriyalarining texnik kompetentligi metrologik kuzatuvchanlikni ta‘minlash bo‘yicha ishlarni namoyish qilish yo‘li bilan tasdiqlanishi kerak.

G 6.6 Tashqi yetkazib beruvchilar tomonidan yetkazib beriladigan mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar

G 6.6.1 ISO/IEC 17025 standartining 6.6.1–6.6.3-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llanilishi kerak:

a) Laboratoriya xizmat ko‘rsatuvchilar ichki yoki tashqi ekanligini aniq belgilab olishi kerak. Agrar xizmat ko‘rsatuvchi laboratoriya rahbariyati tomonidan nazorat qilinadigan boshqaruv tizimi doirasida ishlamasa, tashqi xizmat ko‘rsatuvchi hisoblanadi. Ushbu tashqi xizmat ko‘rsatuvchi boshqa yuridik shaxs, o‘sha yuridik shaxsning bo‘limi/xizmati/bo‘linmasi bo‘lishi mumkin va hokazo. Ayni bir yuridik shaxsga mansublik xizmat ko‘rsatuvchini ichki xizmat ko‘rsatuvchi deb hisoblash uchun yetarlicha dalil hisoblanmaydi.

Izoh: ilgari ISO/IEC 17025:2005 standartiing 4.5-bandiga tegishli talablar endilikda ISO/IEC 17025:2017 standartining 6.6-bandida bajariladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 9/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

b) Laboratoriya mijoz tomonidan so‘ralgan sinash/kalibrash/namunalar olishni tashqi xizmat ko‘rsatuvchiga topshirsa, Laboratoriya topshirilgan ish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Akkreditatsiya tashqi xizmatlar ko‘rsatuvchining kompetentligini isbot qilishning ustuvor usuli hisoblanadi.

c) Laboratoriya ma‘qullangan xizmat ko‘rsatuvchilar va subxizmat ko‘rsatuvchilar ro‘yxatiga ham ega bo‘lishi kerak.

G 7. Jarayonga qo‘yiladigan talablar

G 7.1 So‘rovlar, tenderlar va shartnomalarni ko‘rib chiqish

G 7.1.1 ISO/IEC 17025 standartining 7.7.1–7.7.8-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) Laboratoriyada namunalarni taqdim etish, standart tartib-taomillardan chetga chiqish, reglamentlashtirilgan usul yoki natijalar aniqligi darajasining nomuvofiqligi singari jihatlar to‘g‘risida xabar berish, shuningdek, sinovlarning aniq bir turini bajarish uchun subpudratchi sifatida tashqi laboratoriyalar jalb etilgan va ular ma‘qullangan taqdirda buyurtmachilarni (shu jumladan, ichki buyurtmachilarni) xabardor qilish jarayoni bo‘lishi kerak.

b) Agar Laboratoriya sinash yoki kalibrashga standart talablariga muvofiqlik to‘g‘risida ISO/IEC 17025 standarining 7.8.6-bandi talablarini hisobga olib xulosa bersa, Laboratoriya tomonidan ishlab chiqilgan Qaror qabul qilish qoidalari qabul qilinayotgan qaror idealda xodimlarning individual bilimlari yoki tajribasiga emas, balki xolisona isbotlarga asoslanishi kerak bo‘lgan tarzda tekshiriladi va tasdiqlanadi.

Izoh: Laboratoriya sertifikatlashtirish maqsadlari uchun mahsulotlarni sinash bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi akkreditatsiya sohasiga muvofiq hujjatlashtirilgan Qaror qabul qilish qoidalarga ega bo‘lishi kerak.

c) Tegishli zonalarga maqbul kirishni ta‘minlash maqsadida aniq bir buyurtmachi uchun bajariladigan laboratoriya faoliyati ustidan kuzatish uchun laboratoriyalarga Laboratoriya xodimlariga o‘tkaziladigan bosimdan himoya qilish maqsadida va maxfiy axborotni saqlashni ta‘minlash hisobga olingan holda sinash yoki kalibrash o‘tkaziladigan davrdan boshlab Laboratoriya xonalarga kirish jarayoni nazarda tutiladigan tartib-taomil (yo‘riqnoma)ni ishlab chiqish tavsiya etiladi.


d) Laboratoriyalar buyurtmalarni ko‘rib chiqish natijalarini tahlil qilish, shu jumladan, laboratoriya ishini bajarishga shartnomalar yoki kontraktlarning har qanday sezilarli o‘zgartirilishi haqida yozib borishi hamda ularning, shu jumladan, buyurtmachining talablariga yoki laboratoriya faoliyati natijalariga tegishli bo‘lgan yozuvlarning saqlanishini ta‘minlashi kerak.

G 7.2 Usullarni tanlash, validatsiya i verifikatsiya qilish

G 7.2.1 ISO/IEC 17025 standartining 7.2.1–7.2.2-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llanilishi kerak:

a) Laboratoriya tomonidan qo‘llaniladigan usullar va metodika, shuningdek, ilova qilinadigan hujjatlar (yo‘riqnomalar, qo‘llanmalar, asbob-uskunalarining pasporti va boshqalar) dolzarb holatda bo‘lishi va xodimlar ulardan foydalana olishi kerak. Agar yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar xodimlar foydalana olmaydigan holatda bo‘lsa, Laboratoriya ushbu ho‘jjatlar foydalana oladigan holatda va xodimlar uchun tushunarli bo‘lishi uchun barcha choralarni ko‘rish kerak (tarjima, o‘rganish, o‘qitish va shu kabilar);

b) standart usuldan chetga chiqish usulning validatsiyasini talab qiladi. Ushbu holatda laboratoriya yuzaga kelgan nomuvofiqlikni tahlil qilishi, baholanadigan ta‘sirga va tadqiqot (tahlil)ning akkreditatsiyadan o‘tkazilgan usulidan chetga chiqish natijasidan foydalanish imkoniyatiga yoki namunalarni tanlash nomaqbulligiga bog‘liq ravishda ishni davom ettirish kerakligi yoki yo‘qligini hal etishi kerak. Tasodifiy chetga chiqishlarni boshqarish bilan bog‘liq

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZAK O‘ZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 10/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

oldingi vaziyat bilan laboratoriya tadqiqot (tahlil) usulini ixtiyoriy ravishda moslashtiradigan yoki uning taxmin qilingan qo‘llanish shaklidan tashqari usulni qo‘llagan vaziyat o‘rtasida tafovut mavjudligin qayd etish zarur.

c) ISO/IEC 17025 standartining 7.2.1.6-bandi qoidalari akkreditatsiyaning qayd etilgan sohasi doirasida qo‘llanilmaydi.

G 7.2.2 Laboratoriyaga usullarni validatsiya va vertifikatsiya qilishda O‘ZAK.R-12 qo‘llanmasidan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu Qo‘llanma Markazning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan. Bunda laboratoriya quyidagilarni ham hisobga olishi zarur:

a) Muayyan usul uchun quyidagi vaziyatlardan biri yoki bir nechitasi yuzaga kelgan taqdirda:

- tadqiqot (tahlil)ni bajargan yoki namunalarni/probalarni tanlagan asosiy xodimlarni almashtirish;

- tadqiqot (tahlil) yoki namunalarni/probalarni tanlash uchun asbob-uskunlar va/yoki tanqidiy sxemalarni qisman yoki to‘liq o‘zgartirish;

- asbob-uskunalarni takroran kalibrash yoki asbob-uskunalariga nisbatan tanqidiy vaziyat;

- agar usul uni e‘lon qilgan organ tomonidan o‘zgartirilgan bo‘lsa;

- agar validatsiya va verifikatsiya qilingan usulga o‘zgartirish kiritilgan bo‘lsa.

Ushbu vaziyat tahlil qilinishi, va, agar dastlabki verifikatsiya yoki validatsiya natijalariga biror-bir ta‘sir mavjud bo‘lsa, verifikatsiya jarayoni zarur darajagacha takroran o‘tkazilishi, yoki usulning yangi validatsiyasi o‘tkazilishi kerak;

b) Verifikatsiya validatsiya qilingan usullarga nisbatan qo‘llaniladi deb hisoblanadi. Milliy va xalqaro standartlarda bayon qilingan usullarni validatsiya qilingan usul sifatida qarash kerak. Lekin shunga qaramay, laboratoriyada (usulni) qo‘llashda barcha shartlar bajarilganligi tasdiqlanishi kerak. Agar usuldan ayrim hollarda foydalanilsa, xodimlarning kompetentligi yoki asbob-uskunalarining yaroqliligi shubha ostiga olinishi kerak. Ushbu holatda, masalan, xodimlarning ko‘rib chiqilayotgan usulga yaqin, yoki usulning o‘zi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan sohalarda tajribasi va ma‘lumoti hisobga olingan holda asoslash kerak bo‘ladi;

c) Verifikatsiyani laboratoriya usulning talab etiladigan ishchi tavsiflarga qodir ekanligining isbotini taqdim etadigan tarzda hujjatlashtirish kerak;

d) Usullar to‘liq hujjatlashtirilishi va validatsiya qilinishi kerak (standartlashtirilgan usullardan tashqari). Darsliklar, jurnallar va ixtisoslashtirilgan jurnallarda e‘lon qilingan usullar standartlashtirilgan usullar hisoblanmaydi, chunki laboratoriyada ular bilan faqat eksperiment olib borilgan;

e) Tegishli sinovlar o‘zgartirilgan taqdirda (bekor qilingan standartlar, qoidalar yoki buyurtmachi tomonidan belgilangan yangi qoidalar va shu kabilar), Laboratoriya sinovning yangi usullariga o‘tish tartib-taomilini hujjatlashtirishi kerak;

f) Agar Laboratoriyaning o‘zining yoki standartlashtirilmagan usullar to‘liq hujjatlashtirilgan, validatsiya qilingan va joiz bo‘lsa, ularni joriy etish va ulardan foydalanish uchun kompetentli xodimlar bor bo‘lsa, laboratoriya ularga akkreditatsiya qilinishi mumkin;

g) Agar usul eskirgan standart usul bilan taqqoslash yo‘li bilan validatsiya qilingan bo‘lsa, taqqoslash yangi versiyaga nisbatan qayta baholanishi, usul esa takroran validatsiya qilinishi kerak;

h) ISO/IEC 17025 standartining 7.2.2.4-bandlarida so‘ralgan axborot verifikatsiya/ validatsiya to‘g‘risidagi hisobotda taqdim etilishi kerak. Hisobotda hech bo‘lmaganda quyidagi ahborot mavjud bo‘lishi kerak:

- maqsad;

- ishtirok etuvchi xodimlar;

- verifikatsiya/validatsiyada foydalaniladigan asbob-uskunalar, shablonlar, ma‘lumotnoma materiallar;

- verifikatsiya/validatsiya usullarining foydalaniladigan tartib-taomili;



OZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI

Sinov va kalibrash laboratoriyalarini
akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha
qo'llanma

O'ZAK.R-08

Sahifa: 11/22

Tahrir: 03-00

Joriy etish sanasi: 06.10.2025

- usul talablarining parametrlari/tavsiflari yoki o'ziga xosliklarini bayon qilish;
- usulni ijro etish tavsiflarini aniqlash (qabul qilingan parametrlar/usullarning tavsiflari, ma'lumotlar va ma'lumotlar tahlili mezonlarini belgilash);
- olingan hujjatlar;
- usullarning parametrlari/tavsiflarini verifikatsiya/validatsiya qilishda olingan natijalarga rioya qilish to'g'risidagi ariza, ularning taxmin qilinayotgan foydalanish uchun yaroqliligi ko'rsatilgan holda.

G 7.3 Namunalarni tanlash

G 7.3.1 ISO/IEC 17025 standartining 7.3.1–7.3.3-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to'liq qo'llanilishi kerak:

a) Namunalarni tanlash barcha Laboratoriyalar uchun majburiy hisoblanmaydi, biroq, agar laboratoriya mahsulotlarni tanlasa, u tegishli normativ hujjatlar talablariga rioya qilishi kerak.

b) Namunalarni tanlash (nazorat qilinadigan joylar, zonalarni aniqlash)ni sinash uchun normativ, texnik va metodik hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirish zarur. Laboratoriyada namunalarni tanlashning rejasi va usullari bo'lishi kerak.

c) Mahsulotlar namunalari probalarini tanlash rejasi sinovlar boshlanishidan oldin tuzilishi kerak va unda kamida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: namunalarni tanlaydigan va unda qatnashadigan xodimlar; mahsulotning nomi va tanlangan namunaning turi; namunalarni tanlash metodikasi; namunalarni tanlash uchun tanladigan asbob-uskunalar ro'yxati; tanlanadigan namunalar soni (hajmi); tanlangan namunalarni qismlarga bo'lish bo'yicha yo'riqnoma (zarurat bo'lganda nazorat namunani ajratish); namunalarni tanlash uchun idishning turi va tavsifi; ehtiyotkorlikning maxsus choralari (zarurat bo'lganda); namunalarni saqlash va tashish sharoitlari va boshqalar;

d) Namunalarni tanlash usullari quyidagilarni tavsiflashi kerak: namunalarni yoki tanlash nuqtalarini tanlash; namunalarni tanlash rejasi; keyinchalik sinash yoki kalibrashni o'tkazish uchun talab etiladigan namunani olish maqsadida namuna(lar), materiallar yoki mahsulotlarni tayyorlash yoki ularga ishlov berish.

e) Namunalar albatta identifikatsiyalanishi kerak, namuna yoki predmet olinganligi to'g'risidagi hujjatda predmetlarni qaysi xodimlar olishga kompetentligi ko'rastilishi va ular ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Ro'yxatdan o'tkaziladigan axborot olinayotgan vaqtda predmetlarning holati to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olishi va registrga yozuvni yozayotgan shaxs identifikatsiya qilinishi kerak.

f) Agar hujjatlarda namunalarni olish rejasi va tartib-taomili belgilanmagan bo'lsa, ular buyurtmachi bilan kelishiladi va hujjatlashtiriladi.

G 7.4 Sinash yoki kalibrash obyektlari bilan ishlash

G 7.4.1 ISO/IEC 17025 standartining 7.4.1-7.4.4-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to'liq qo'llanilishi kerak:

a) Namunalarni tashish, saqlash, ular bilan ishlash va ularni utilizatsiya qilish normativ hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

b) Laboratoriyada namunalar laboratoriyada bo'lgan vaqt mobaynida sinalishi/kalibrovka qilinishi kerak bo'lgan namunalarni ro'yxatdan o'tkazish va identifikatsiyalash tizimi belgilanishi kerak. Shuningdek bir namunadagi (masalan, kimyo va mikrobiologiya) sinashning bir nechta turlari bir vaqtning o'zida o'tkazilgan taqdirda namunalarni ajratish maqsadga muvofiqdir.

c) Sinash uchun yaroqsiz bo'lgan va/yoki belgilangan sharoitlardan chetga chiqilgan namunalar bilan ishlash:

- namunalarni olishda belgilangan sharoitlardan barcha chetga chiqishlar, shu jumladan, o'rash sifati, namunalar soni) ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Bunday chetga chiqishlar mavjud bo'lgan taqdirda laboratoriya buyurtmachi bilan bog'lanishi, uni vaziyatdan xabardor qilishi va

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 12/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

sinash/kalibrash bo‘yicha ishlar boshlanishidan oldin keyingi yo‘riqnomalarni olishi kerak (yana qarang: ISO/IEC 17025 standartining 7.4.3-bandi);

- agar buyurtmachi namuna laboratoriyaga taqdim etilgan ko‘rinishda sinalishi/kalibrilanishini talab qilsa, sinash/kalibrash to‘g‘risidagi hisobotlarga javobgarlik rad etilishi kiritilishi mumkin. Unda buyurtmachi tomonidan e‘tirof etilgan tegishli standartni rad etish kuzatilganligi va ushbu rad etish natijalarning ishonchliligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniq belgilanadi.

d) Laboratoriya namunalari qayerda saqlanishiga nisbatan aniq hujjatlashtirilgan tartib-taomilga ega bo‘lishi kerak. Bu namunalarning har xil tiplari uchun bir nechta saqlash joylarini o‘zi ichiga olishi mumkin, biroq ular aniq ko‘rsatilishi kerak. Bunda, namunalarning har bir saqlash joylari uchun namunalari olingandan boshlab ular olib qo‘yilganiga qadar ularni kuzatib borishni ta’minlash imkonini beradigan ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi mavjud bo‘lishi kerak. Ro‘yxatdan o‘tkaziladigan ma’lumotlarda namunalarni qabul qilish va ularni olib qo‘yish sanasi va vaqti, saqlash joyi, mas’ul shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak. Ushbu namunalari uchun atrof muhitning belgilangan shartlari nazorat qilinishi kerak (qarang: ISO/IEC 17025 standartining 7.4.4-bandi).

G 7.5 Texnik yozuvlar

G 7.5.1 ISO/IEC 17025 standartining 7.5.1-7.5.2-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llanilishi kerak:

a) Standart talablari ham qo‘lyozmalarga, ham elektron yozuvlarga nisbatan qo‘llaniladi. Yozuvlar aniq, tushunarli tilda bayon qilinishi kerak. Elektron tashuvchilardagi yozuvlar uchun ularni, shu jumladan, ularga ruxsat berilmagan o‘zgartirishlar kiritishdan himoya qilish va tiklash tartib-taomili ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak;

b) Yozuvlarni yuritish tizimi har qanday xatoning manbaini, shu jumladan, chiquvchiga yaqin istalgan laboratoriya faoliyatining takrorlanishini kuzatish imkoniyatini ta’minlashi kerak. Bu ish to‘g‘ri mavjud bo‘lgan va kalibrangan uskunaga tegishli usullardan foydalangan holda o‘qitilgan xodimlar tomonidan bajarilganligini tekshirish uchun ma’lumotlar kuzatish paytida ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerakligini anglatadi.

c) Texnik yozuvlarda sinovlarning barcha bosqichlari o‘tkazilganligi natijalarini aks ettiruvchi ma’lumotlar va axborot bo‘lishi kerak. Yozuvlarda dastlab amalga oshirilgan sinovga eng ko‘p darajada yaqinlashtirilgan sinovni qayta tiklash uchun yetarli bo‘lgan axborot va, zarurat bo‘lganda, sinovlarning nuqsoniga ta’sir ko‘rsatadigan omillarga berilgan baho mavjud bo‘lishi kerak. Yozuvlarda namunalarni tanlagan, sinash/kalibrashning har bir bosqichini o‘tkazgan, sinash/kalibrash natijalari nazorat qilinishi amalga oshirgan xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

d) Kompyuter tizimidan foylanadigan elektron yozuvlar ular nazorat-o‘lchash asboblarning bir qismi ekanligi yoki yo‘qligidan, ma’lumotlarni saqlash va ularga ishlov berish uchun shunchaki foydalaniladigan tizim ekanligi yoki emasligidan qat’i nazar zarur tarzda boshqarish va nazorat qilishga ehtiyoj sezadi.

e) Laboratoriya qanday kompyuter yozuvlari o‘zida birlamchi kuzatishni ifodalashini, ya’ni kuzatish vaqtida yozilgan ishlov berilmagan ma’lumotlar ekanligini hal etishi kerak, agar ma’lumotlar kompyuterga bevosita asboblardan yuklansa yoki stendga kiritilsa. Agar ma’lumotlar kompyuterga berilishigacha yon daftarchalarga yoki ishchi varaqlarga yozilsa, u holda ushbu qog‘ozdagi yozuvlar birlamchi kuzatishlar hioblanadi va ma’lumotlarni kompyuterga qo‘lda kiritishda xatoning potensial manbaini hisobga olish zarur. Yozuvdagi xatolar belgilangan tartib-taomilga muvofiq to‘g‘rilanadi.

G 7.6 O‘lchashlarning noaniqligini baholash

G 7.6.1 ISO/IEC 17025 standartining 7.6.1-7.6.3-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llanilishi kerak:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZAK O‘ZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 13/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

a) Laboratoriya kalibrashda noaniqlik bo‘yicha ILAC siyosatiga (ILAC P14), ILAC G17 qo‘llanmasiga, O‘lchashlarning noaniqligi bo‘yicha Markaz siyosatiga (O‘ZAK.P-12) amal qilishi kerak;

b) Laboratoriya sinash/kalibrashning har bir usuli uchun o‘lchashlarning noaniqligini baholashi kerak;

c) Laboratoriya o‘lchashlarning noaniqligini baholash tartib-taomilini hujjatlashtirishi va joriy etishi hamda bu bilan shug‘ullanadigan shaxslar/funksiyalarni belgilashi kerak;

d) o‘lchashlarning noaniqligini baholash uchun Laboratoriya o‘lchashlarning matematik modeliga ega bo‘lishi kerak. Barcha omillar o‘lchash natijasiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin (natijani baholash va modellar kalibrash tartib/taomiliga va o‘lchashni aniqlashga bog‘liq bo‘ladi);

e) Noaniqlik odatda namunalarni tanlashdan sinash/kalibrashgacha bo‘lgan ulushni hisobga oladi. Biroq, ushbu ulushni Laboratoriya tomonidan aniqlash mumkin bo‘lmaganda, masalan, Laboratoriya namunalarni tanlamaganda yoki natijalar faqat sinash/kalibrash uchun taqdim etilgan obyektga tegishligi buyurtmachi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelishilganda natijaning xabar berilgan noaniqligini baholash o‘tkazilgan sinov/kalibrash bilan cheklangan deb hisoblash qabul qilingan

f) Akkreditatsiyadan o‘tkazilgan kalibrash laboratoriyalariga berilgan kalibrash sertifikatlari o‘lchashlarning noaniqligi qiymatini o‘z ichiga olishi kerak. Shuningdek, qiymat akkreditatsiya sohasida ko‘rsatilgan **kalibrash va o‘lchash imkoniyatlari** (Calibration and Measurement Capabilities “CMC”) dan kam bo‘lmasligi kerak.

G 7.7 Natijalarning ishonchliligini ta‘minlash

G 7.7.1 Umuman olganda Laboratoriyada natijalarning ishonchliligini ta‘minlash choralari ko‘rilishi kerak. Monitoring laboratoriya ichida o‘tkaziladigan tadbirlarni (ISO/IEC 17025 standartining 7.7.1-bandi), boshqa laboratoriyalarning natijalari bilan taqqoslashni (ISO/IEC 17025 standartining 7.7.2-bandi), shuningdek, faoliyatni yaxshilashga qaratilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish va tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek ILAC (ILAC P9 siyosati) talablarini amalga oshirish maqsadida Markazning quyidagi hujjatlari qoidalari hisobga olinishi kerak:

- Ariza beruvchilar va akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarning malakani tekshirish va laboratoriyalararo solishtirishlarda ishtirok etishiga nisbatan siyosat - O‘ZAK.P-10;

- Ariza beruvchilar va akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarning malakani tekshirish va laboratoriyalararo solishtirishlarda ishtirok etishi bo‘yicha yo‘riqnoma - O‘ZAK.Y-07.

a) Laboratoriya:

- o‘z faoliyati natijalari monitoringi uchun hujjatlashtirilgan tartib-taomilga ega bo‘lishi;

- monitoring rejasini, shu jumladan, (O‘ZAK.Y-07/F01) shakli bo‘yicha malakani tekshirish va laboratoriyalararo solishtirishlarda ishtirok etish rejasini ishlab chiqishi;

- belgilangan tartib-taomilga muvofiq o‘z faoliyati monitoringini amalga oshirishi va olingan ma‘lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazishi;

- monitoring yordamida olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishi;

- zarurat bo‘lganda ishonchsiz ma‘lumotlar olinishining oldini olish maqsadida tegishli harakatlarni bajarishi kerak;

b) Markazning baholovchilari taqdim etilgan tartib-taomilning belgilangan talablarga muvofiqligini, shuningdek, ushbu dasturga muvofiq natijalarning ishonchliligini ta‘minlash bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilishi va ularning natijadorligini baholaydilar;

c) Laboratoriyalarning malakani tekshirish va laboratoriyalararo solishtirishlarda ishtirok etishi natijalarini baholash (O‘ZAK.Y-07.F01) shakli bo‘yicha laboratoriya tomonidan taqdim etilgan rejaga muvofiq o‘tkaziladi;

d) agar laboratoriya ISO/IEC 17043 talablarini bajaradigan kompetentli provayder tomonidan tashkil etilgan malakani tekshirish natijalarini taqdim etsa, baholashda hisobotlarga va oldindan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 14/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

belgilangan mezonlar bo‘yicha laboratoriya faoliyat ko‘rsatishining tavsiflariga asoslangan xulosalarga alohida e‘tibor beriladi;

e) agar laboratoriya laboratoriyalararo qiyoslashlarda ishtirok etish natijalarini taqdim etsa, natijalarni baholash O‘ZAK.Y-07ga muvofiq o‘tkaziladi. Laboratoriyaning laboratoriyalararo solishtirishlarda ishtirok etishi asoslanganligi laboratoriyaga baho berish va laboratoriyalarning malakani tekshirish va laboratoriyalararo qiyoslashlarda ishtirok etish rejasini kelishish jarayonida baholanadi.

G 7.8 Natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarni taqdim etish

G 7.8.1 ISO/IEC 17025 standartining 7.8.1-7.8.8-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llanilishi kerak:

a) Natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarga (keyingi o‘rinlarda – hisobotlar) quyidagilar tegishli bo‘ladi: sinash va/yoki kalibrash bayonnomalari, kalibrash sertifikatlari, namunalarni tanlash dalolatnomalari va boshqalar;

b) Hisobotlar standart shartlariga rioya qilish sharti bilan qog‘ozda yoki elektron shaklda rasmiylashtirilishi mumkin. Chiqarilgan barcha hisobotlar texnik yozuvlar sifatida saqlanishi kerak;

c) Laboratoriya, agar axborot buyurtmachi tomonidan taqdim etilmagan bo‘lsa, hisobotda taqdim etilgan butun axborot uchun javob berishi kerak. Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar aniq belgilanishi kerak. Axborot buyurtmachi tomonidan taqdim etilganda va natijalarning ishonchliligiga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lganda, bu hisobotning mazmunida ko‘rsatilishi kerak;

d) agar laboratoriya namunalar olinishi bosqichi uchun mas‘ul bo‘lmasa (masalan, namuna buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan bo‘lsa), hisobotda namunalar olingan namunaga nisbatan qo‘llanilishi ko‘rsatilishi kerak;

e) Hisobotlar vakolatli shaxslar tomonidan imzolanishi kerak. Agar hisobotda bir nechta sahifa bo‘lsa, xavfsizlikning qaysi choralari ruxsat berilmagan takror aks ettirishning oldini olishi ko‘rsatilishi muhimdir;

f) Spetsifikatsiyaga yoki standartga muvofiqlik to‘g‘risida xulosa taqdim etilganda laboratoriya qabul qilingan qaror qoidasi bilan bog‘liq xavf-xatar darajasini hisobga olgan holda qaror qabul qilishning foydalanilgan qoidasini hujjatlashtirishi va qaror qabul qilish qoidasini qo‘llashi kerak;

g) Qaror qabul qilish qoidalari va muvofiqlik to‘g‘risidagi bayonotlar bo‘yicha amal qilinadigan ko‘rsatmalar ILAC G8da keltirilgan.

Izoh: ILAC G8 hujjatlari ILAC saytida ingliz va rus tillarida keltirilgan.

G 7.9 Shikoyatlar (e‘tirozlar)

Qo‘shimcha talablar mavjud emas.

G 7.10 Nomuvofiq bo‘lgan ishni boshqarish

G 7.10.1 ISO/IEC 17025 standartining 7.10.1-7.10.3-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) Muvofiq bo‘lmagan ish – bu qo‘llaniladigan talablarga (qarang: ISO/IEC 17025 standartining 5.4-bandi), ya‘ni laboratoriyada belgilangan standartlarga yoki iste‘molchilar bilan kelishilgan talablarga muvofiq bo‘lmagan har qanday ish;

b) Ish sifatiga va natijalarning ishonchliligiga ta‘sir ko‘rsatadigan har qanday voqea-hodisa ularning ahamiyati yuzasidan baholanishi kerak. Undan boshqaruv tizimidagi zaif joylar manbai sifatida foydalanish zarur;

c) Laboratoriya muvofiq bo‘lmagan faoliyat yoki qo‘llaniladigan tartib-taomillar va talablar holatida amalga oshiriladigan tartib-taomilga ega bo‘lishi kerak. Muayyan majburiyatlar, xavf-xatarning belgilangan darajasiga muvofiq harakatlar, ahamiyatlilikni baholash va maqbullik

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 15/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

to‘g‘risidagi qaror hamda laboratoriyadan tashqaridagi tegishli kommunikatsiya ko‘rib chiqilishini kafolatlashi kerak (qarang: ISO/IEC 17025 standartining 7.10.1-bandi);

d) Laboratoriya har qanday bunday voqea-hodisalarni, ya‘ni shikoyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga, muvofiq bo‘lmagan ish va boshqa qoida buzilishlarini aniqlashni ro‘yxatdan o‘tkazishga muvofiqlashtirilgan yondashuvni qo‘llashi tavsiya etiladi.

e) So‘ngra mas‘ul xodimlar (qarang: ISO/IEC 17025 standartining 7.10.1-bandi) ushbu kirish ma‘lumotlari bilan ishlashi va bundan keyingi sa‘y-harakatlar, masalan, javob (qarang: ISO/IEC 17025 standartining 7.9-bandi) yoki tuzatuvchi harakatlar talab etilishi yoki yo‘qligini belgilashi kerak (qarang: ISO/IEC 17025 standartining 7.10.3 va 8.7-bandlari);

f) Agar nomuvofiqlik takrorlansa yoki Laboratoriya menejmet tizimi talablari bilan bog‘liq bo‘lsa, tuzatuvchi harakatlarni bajarishi kerak (ISO/IEC 17025 standartining 7.10.3-bandi);

g) Laboratoriyaning menejment tizimida nomuvofiqlikka javoban tuzatuvchi harakatlarga qo‘yiladigan talablar mavjud (qarang: ISO/IEC 17025 standartining 8.7-bandi);

h) Unga binoan tuzatuvchi harakatlar nomuvofiqlik oqibatlariga muvofiq bo‘lishi kerak bo‘lgan amal qilinadigan prinsipga muvofiq bo‘lmagan ish aniqlanganda quyidagi masalalar hal etilishi kerak:

- laboratoriya faoliyati qachon to‘xtatilishi kerak;
- kim xabardor qilinishi kerak;
- tahlil uchun kim javob beradi;
- qanday tuzatuvchi harakatlar ko‘rilishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak;
- harakatlar qachon qaytarilishi yoki tiklanishi kerak (masalan, tuzatish yoki tuzatuvchi harakatlar bajarilgandan keyin);
- muammo hal etilganligini aniqlash uchun kim javob beradi (masalan, ushbu ish tiklanishi mumkin).

Izoh: nomuvofiqlarni bartaraf etish muddati to‘rt oydan oshmasligi kerak.

G 7.11 Ma‘lumotlar va axborotni boshqarish

G 7.11.1 ISO/IEC 17025 стандартининг 7.11.1-7.11.6 -bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:


a) Laboratoriya laboratoriya ishlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar va axborotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu barcha axborot manbalariga, shu jumladan, qog‘oz formatda boshqariladigan manbalarga tegshildir;

b) Laboratoriya axborotini boshqarish tizimi obyektidan tashqarida yoki tashqi xizmat ko‘rsatuvchi tomonidan boshqarilganda va xizmat ko‘rstilganda Laboratoriya ushbu hujjatda bayon qilingan barcha qo‘llaniladigan talablarni, shu jumladan, ushbu Qo‘llanmaning G 4.2.4-bandi talablarini xizmat ko‘rsatuvchi va tizim operatori bajarishini ta‘minlashi kerak;

c) Laboratoriya axborotni boshqarishning laboratoriya tizimlariga tegishli bo‘lgan yo‘riqnomalar, qo‘llanmalar va ma‘lumotnoma ma‘lumotlar xodimlar uchun oson foydalanadigan bo‘lishini ta‘minlashi kerak;

d) Hisob-kitoblarni bajarish uchun Laboratoriya tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minlash validatsiyasi, masalan, foydalaniladigan formulalar va algoritmlarni tavsiflash va tizim tomonidan berilgan natijalarni ma‘lum to‘plamni joriy etishda kutilayotgan ma‘lumotlar bilan representativ taqqoslash yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin;

e) Hisob-kitoblar va ma‘lumotlarni uzatish zarur tarzda tekshirilishi kerak. Hisob-kitoblar va ma‘lumotlarni uzatishni muntazam tekshirish ular qanday bajarilishidan qat‘i nazar hamma vaqt bajarilishi kerak (kompyuterlashtirilgan tizimlar yoki ularsiz). Ushbu tekshirishning davriyligi uzatish bilan bog‘liq xavf-xatarni tahlil qilish, bajariladigan hisob-kitoblarning murakkabligi va ma‘lumotlarni uzatishning ishonchliligini tekshirish asosida belgilanishi kerak;

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZAK O‘ZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 16/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

f) Elektron shaklda saqlanadigan yozuvlar bilan bog‘liq holatda ruxsat berilmagan foydalanishning (foydalanish darajalarini, parollar va shu kabilarni o‘rnatish) yoki ushbu yozuvlarni o‘zgartirishning oldini olish uchun aniq qoidalar belgilanadi;

g) Yetkazib berilayotgan materiallar sifatiga yoki subpudrat sinovlarga tegishli axborotga nisbatan yozuvlarni nazorat qilishning hujjatlashtirilgan tartib-taomili, shu jumladan, kompyuter bilan qo‘llab-quvvatlash qo‘llanishishi va ular tasniflash tartib-taomilidan o‘tkazilishi kerak;

h) Nazorat ostidagi yozuvlar joy, mas‘ul shaxs va saqlash muddati bilan aniq identifikatsiyalanishi kerak (ismi, kod, qo‘llab-qkvvatlash, ma‘lumotlar);

i) Axborot va saqlash muddati amaldagi qonunchilikka yoki mijozning talablariga (agar ular bor bo‘lsa) muvofiq bo‘lishi kerak.

G 8. Menejment tizimiga qo‘yiladigan talablar

G 8.1 Umumiy qoidalar

G 8.1.1 Laboratoriyaning menejment tizimi hujjatlari variantlardan qaysi biri (A yoki B) qo‘llanilishini aniq-ravshan belgilashi kerak.

Izoh: Agar Laboratoriya tomonidan ishlab chiqilgan Sifat bo‘yicha qo‘llanmaning tuzilmasi bo‘limlari va bandlari raqamlari bo‘yicha standart tuzilmasiga muvofiq bo‘lsa, hujjatda taxminan quyidagi mazmundagi izoh berilishi tavsiya qilinadi: “Hujjatning bo‘limlari va bandlari raqamlari ISO/IEC 17025ga muvofiq”.

G 8.2 Menejment tizimini hujjatlashtirish (A variant)

G 8.2.1 ISO/IEC 17025 standartining 8.2.1-8.2.5-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) Laboratoriya vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni (moddiy va inson resurslari) identifikatsiya qilishi va hujjatlashtirishi va ularning mavjud ekanligini hujjatlar bilan namoyish qilishi kerak;

b) Ushbu Qo‘llanmaning talablarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlar, jarayonlar, tizimlar va yozuvlar menejment tizimiga kiritilishi kerak;

c) Laboratoriya rahbariyati, masalan, menejment tizimining maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslarni taqdim etish yuzasidan rahbariyat tomonidan tahlil qilishda faol qatnashib o‘zining doimiy yaxshilashga tarafdorligi va ishtirok etishini namoyish qilishi kerak.

G 8.3 Menejment tizimi hujjatlarini boshqarish

G 8.3.1 ISO/IEC 17025 standartining 8.3.1-8.3.2-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) Hujjatlar tasdiqlanishidan oldin (agar ular ichki hujjatlar bo‘lsa) yoki qo‘llanilishidan oldin (agar ular tashqi hujjatlar bo‘lsa) tegishli vakolatga ega bo‘lgan **kompetentli xodimlar** tomonidan yaroqlilikka tekshirilishi kerak;

b) Har bir hujjat uchun davriy qayta ko‘rib chiqishni belgilash tavsiya etiladi.

c) Istalgan o‘zgarishlarni identifikatsiya qilish zarur, quyidagi hollar bundan mustasno:

- hujjatni to‘liq qayta ko‘rib chiqish zarur;

- texnik mazmuni o‘zgartirishdan rasmiylashtirish bilan bog‘liq tuzatish va tahririy formatlashtirish o‘tkaziladi;

d) O‘zgartirishlar to‘g‘risida bir qancha usullar, masalan, ilova qilinadigan ro‘yxatga yoki hujjatga havola qilish, har xil ranglardan, shriftlardan foydalanish, bazaviy havolalar va boshqalar orqali xabardor qilish mumkin;

e) O‘zgartirishlarni kursiv bilan belgilash tavsiya etilmaydi, chunki ayrim birlamchi matn kursiv bilan belgilangan bo‘lishi mumkin. Hujjatga qo‘lda tuzatish kiritish tavsiya qilinmaydi;



f) Har bir hujjat chiqarish va/yoki versiya to'g'risidagi axborotdan, sahifalarni raqamlashtirishdan, sahifalarning umumiy sonidan (yoki hujjatning oxirini belgilash uchun belgidan) foydalangan holda albatta identifikatsiya qilinishi kerak.

G 8.4 Yozuvlarni boshqarish (A variant)

G 8.4.1 ISO/IEC 17025 standartining 8.4.1-8.4.2-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to'liq qo'llaniladi:

- a) Laboratoriyada quyidagi yozuvlar uchun saqlashning eng kam muddatlari belgilanishi kerak:
- birlamchi va hosila ma'lumotlar;
 - hisobotlarning nusxalari;
 - hisobotlar;

b) Asbob-uskunalar to'g'risidagi yozuvlar (masalan, kalibrash sertifikatlari) asbob-uskunalar xizmat qilishining butun muddatida plyus ikki yil (faoliyat davri mobaynida muvofiqlik tasdiqlanishi uchun) saqlanishi kerak. Ushbu muddatlar boshqalar tomonidan belgilangan (masalan, yuridik yoki shartnomaviy) qoidalar bilan bog'liq emas;

c) Laboratoriya yozuvlarni arxivlashtirish bo'yicha aniq tartibga ega bo'lishi kerak. Laboratoriyada yozuvlarni arxivlashtirish uchun mas'ul shaxsni belgilash tavsiya qilinadi. Arxivlashtirish tashqi obyektlarda amalga oshirilishi mumkin, biroq arxivlar laboratoriyani baholashning butun davri mobaynida foydalaniladigan holatda bo'lishi kerak;

d) Laboratoriya faoliyatini Markaz tomonidan davriy baholash maqsadida akkreditatsiya sohasiga muvofiq laboratoriya faoliyatiga tegishli yozuvlar (ish jurnallari, bayonnomalar nusxalari, kalibrash sertifikatlari, tadqiqot natijalari hisobotlari va boshqalar) Markaz tomonidan baholanguniga qadar saqlanishi kerak.

G 8.5 Xavf va imkoniyat bilan bog'liq xatti-harakatlar

G 8.5.1 ISO/IEC 17025 standartining 8.5.1-8.5.3-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to'liq qo'llaniladi:

a) Laboratoriya boshqalar qatori SWOT-tahlil yoki FME singari vositalardan foydalanishi mumkin. Qayd etish zarurki (qarang: ISO/IEC 17025 standartga kirish), Laboratoriya xavf-xatarlarni va foydalanish zarur bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash uchun javob beradi;

b) Laboratoriya xavf-xatarni boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish uchun har xil amal qiluvchi prinsiplar va standartlardan foydalanishi mumkin;

c) Laboratoriya tadqiqotlarining natijalari ishonchliligiga potensial bog'liqlikka qarab xavf-xatarni bartaraf etish va imkoniyatlar uchun zarur chora-tadbirlar ko'rish zarur;

Xavf-xatarni boshqarish quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- xavf-xatarni aniqlash va bartaraf etish;
- imkoniyatlarni amalga oshirish;
- xavf-xatar manbaini bartaraf etish;
- xavf-xatar ehtimolini yoki oqibatlarini o'zgartirish;

d) xavf-xatarni identifikatsiyalash usullari sog'lom fikr va aql bilan ish tutishdan ilg'or amaliyotni belgilaydigan standartlardan foydalanishgacha almashib turadi.

Masalan:

SWOT-tahlil – bu tashkilotning kuchli va zaif jihatlarini aniqlaydigan jarayon.

Bunda aql bilan ish tutishgacha foydalanish mumkin.

Kuchli tomonlar ro'yxati (ijobiy ichki omillar)	Zaif tomonlar ro'yxati (salbiy ichki omillar)
Imkoniyatlar ro'yxati (tashqi)	Tahdidlar ro'yxati (ichki ijobiy omillar)

4 katakcha muhimlik kamayishiga qarab tasniflangan tegishli axborot bilan to‘ldirilgan.

Masalan: Xavf-xatarni boshqarish bo‘yicha qo‘llanma turlicha yondashuvlarni taqdim etadi.

e) Xavf-xatarni baholashga quyidagi masalalar bo‘yicha murojaat qilish mumkin:

Nima yuz berish mumkin va nima uchun (xavf-xatarni aniqlash yo‘li bilan)?

Oqibatlar qanday?

Bulg‘usi xavf-xatar ehtimoli qanaqa?

Xavf-xatar oqibatlarini yumshatadigan yoki xavf-xatarni, xavf-xatar ehtimolini kamaytiradigan omillar mavjudmi?

f) Xavf-xatarni muqobil bartaraf etish uchun Laboratoriya o‘zi duch keladigan ushbu xavf-xatarni chuqur tahlil qilishi kerak. Maqsad laboratoriya faliyatidagi muayyan kamchiliklarni ko‘rsatishdan iboratdir;

Xavf-xatar va sabablar xavf-xatar ssenariysi asosida tahlil qilinadi. Boz ustiga – xavf-xatarni tasniflash va baholash. Ushbu baholash choralar ko‘rish yoki xavf-xatarni shundaydigi qabul qilish tashabbusini keltirib chiqarishi mumkin. Agar choralar ko‘rilsa, ularning samaradorligi ham o‘rganib chiqilishi kerak. Xavf-xatar qabul qilinadigan bo‘lishi mumkin.

Xavf-xatar ssenariysini ko‘pincha oson aniqlash mumkin. Ushbu holatda “oldini oluvchi choralar” singari yondashuvlar ko‘rib chiqilishi mumkin. Tasniflash va baholash ancha murakkab.

Baholash imkoniyatiga ega bo‘lish uchun ta’sirni baholash, yuzaga kelish ehtimolini va xavf-xatarni tezlikda aniqlash ehtimolini baholash zarur.

g) Laboratoriya ISO/IEC 17025 standartining 8.5-bo‘limida talab qilinadiganga qaraganda, masalan, boshqa qo‘llanmalar yoki standartlardan foydalangan holda xavf-xatarni boshqarishning kengroq metodologiyasini ishlab chiqish kerakligi yoki kerak emasligini hal etadi;

h) Tashkilotda uning vakilligidan qat’i nazar qadriyatlar shkalasini ishlab chiqish foydali: jadval yoki grafik ifodalangan miqdor yoki sifat va hokazo;

i) Xavf-xatarni baholash, masalan, kotirovkaning uch bosqichli tizimi orqali bajarilishi mumkin:

Ta’sir:

- past (1) – oson to‘g‘rilash mumkin – past zarba;

- mo‘tadil (2) – Xato yana paydo bo‘ladi, biroq aniq (masalan, haqiqatnamolik yo‘qotilishi);

- yuqori (3) – bo‘lishi mumkin bo‘lgan bartaraf etilmagan oqibatlar bilan birgalikda (hayot va sog‘liq uchun xavflilikka qadar) jiddiy xatolar.

Paydo bo‘lish ehtimoli: juda kamdan-kam (1), kamdan-kam(2) yoki tez-tez (3).

Uch pog‘onali tizim xavf-xatarni besh pog‘onali baholashga olib keladi.

Paydo bo‘lish ehtimoli				
Ta’sir		1	2	3
	1	1	2	3
	2	2	4	6
	3	3	6	9

Quyidagi holatlarda:

- eng past xavf-xatar (1-2 - yashil) maqbul xavf-xatar sifatida tavsiflanishi mumkin;

- uncha katta bo‘lmagan xavf-xatarni (3-4 - sariq) hal etish zarur, u hamon qabul qilinadimi yoki harakat qilish kerakmi;

- eng yuqori xavf-xatar (6-9 - qizil) odatda kechiktirib bo‘lmaydigan harakatlarni talab qiladi.

j) ISO/IEC 17025 standartining 4.1.4-bandi xolislik xavf-xatar ni uzluksiz aniqlashni talab qiladi. Masalan, bir qator xodimlar uchun xavf-xatarni uzluksiz boshqarish xolislikka ta’sir ko‘rsatadigan yangi vaziyat yuzaga kelgan taqdirda axborotni yangilash majburiyati bilan manfaatlar to‘qnashuvi mustaqil e’lon qilinishi yo‘li bilanta’minlanishi mumkin;

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 19/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

k) Laboratoriya qanday xavf-xatar va imkoniyatlar hisobga olinishi kerakligi hal etilishi uchun javob beradi. Markaz Laboratoriya xavf-xatar va imkoniyatlarni bartaraf etish uchun Laboratoriyalarda tegishli choralar ko‘rilganligi yoki ko‘rilmaganligini baholaydi;

Imkoniyatlar laboratoriya faoliyati ko‘lamlari kengayishiga, yangi mijozlarning murojaat qilishiga, yangi texnologiyalardan foydalanishga va mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun boshqa imkoniyatlar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

l) Laboratoriya xavf-xatarni ko‘rib chiqish va imkoniyatlar rejasini hujjatlashtirishi va xavf-xatarga tegishli barcha yozuvlarni saqlashi kerak.

G 8.6 Yaxshilash (A variant)

G 8.6.1 ISO/IEC 17025 standartining 8.6.1-8.6.2-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) Laboratoriya o‘z boshqaruv tizimini yaxshilash uchun imkoniyatlarni belgilashi va zarur xatti-harakatlarni amalga oshirishi kerak;

b) Laboratoriya faoliyatini yaxshilash uchun imkoniyatlarni quyidagilarning natijalari bo‘yicha aniqlash mumkin:

- o‘tkazilgan tartib-taomillar tahlili;
- siyosatlar, maqsadlardan foydalanish;
- auditlar (ichki va tashqi) natijalarini tahlil qilish;
- ko‘rilgan tuzatuvchi harakatlarni tahlil qilish va ularning natijadorligini baholash;
- rahbariyat tomonidan tahlil qilish;
- mijozlar va foydalanuvchilarning takliflari;
- xavf-xatarni baholash;
- malakani tekshirish ma’lumotlari va natijalarini tahlil qilish va boshqalar natijalari bo‘yicha aniqlash mumkin;

c) Laboratoriya o‘z faoliyatini takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan ham ijobiy, ham salbiy o‘z mijozlari (buyurtmachilar) bilan aksincha aloqa tizimini ishlab chiqishi kerak. Bunda laboratoriyada mijozlar (buyurtmachilar) va sheriklar bilan aksincha aloqa vositalari (masalan, so‘rovnoma, anketalashtirish, muzokaralarni tahlil qilish va boshqalar) belgilanishi kerak.

G 8.7 Tuzatuvchi harakatlar (A variant)

G 8.7.1 ISO/IEC 17025 standartining 8.7.1-8.7.3-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) nomuvofiqliklarni aniqlash asosiy jarayon hisoblanadi va tartib-taomilda aniq belgilanishi kerak;

b) nomuvofiqliklarning ahamiyatini baholash zarur. Agar nomuvofiq ishni baholash laboratoriya faoliyatiga jiddiy ta’sirni ko‘rsatsa, u holda laboratoriya xavf-xatarga muvofiqlikka asoslangan harakatlarni bajarishi kerak. Agar laboratoriyaning o‘z menejment tizimi doirasida uning faoliyatiga nisbatan shubha bor bo‘lgan taqdirda ham xuddi shunday yo‘l tutiladi;

c) shuningdek nomuvofiqlik yuzaga kelishi sabablarini tahlil qilishda har qanday xato noto‘g‘ri tuzatuvchi harakatlar bajarilishiga olib kelishi mumkinligini va muvofiq bo‘lmagan ish takroran paydo bo‘lishining oldini olmasligini hisobga olish kerak. Asosiy sabablarni aniqlash uchun aql bilan ish yuritib ushbu maqsad uchun barcha potensial sabablarni baholash tavsiya etiladi;

d) nomuvofiqliklarning laboratoriya faoliyatiga ta’siri puxta tahlil qilinishi kerak. Xavf-xatar va imkoniyatlarni qayta ko‘rib chiqishda laboratoriya nomuvofiqliklar takroran paydo bo‘lishi ehtimolini va uning kundalik faoliyatga pirovard ta’sirini aniqlashi kerak. Ayrim nomuvofiqliklar takrorlanmasligi yoki faoliyatga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin. Bunda laboratoriya harakatlarning qaysilari amalga oshirilishini hal etishi kerak;

e) tuzatuvchi harakatlar nomuvofiqliklarning jiddiyligi va ustuvorligiga qarab yoki bitta muayyan tadbir, yoki birining orqasidan biri keluvchi bir nechta tadbir bilan bajarilishi mumkin;

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI		
 OZAK O‘ZBEKISTON AKKREDITATSIYA MARKAZI	Sinov va kalibrash laboratoriyalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma	O‘ZAK.R-08
		Sahifa: 20/22
		Tahrir: 03-00
		Joriy etish sanasi: 06.10.2025

f) tuzatuvchi harakatlar uchun zarur shart-sharoitlarni aniq belgilash kerak. Laboratoriya tuzatuvchi harakatlarning natijadorligi va samaradorligiga ishonch hosil qilishi kerak;

g) tuzatuvchi harakatlarning natijadorligini aniqlash uchun laboratoriya yozuvlarni yuritishi va tuzatuvchi harakatlaning ta’siri monitorigini o‘tkazishi kerak. Monitoring davomida laboratoriya tayinlangan harakatlarning muvaffaqiyatli tugallanishini tekshirishi va ko‘rilgan harakatlarning natijadorligini baholashi kerak;

h) tuzatuvchi harakatlar bajarilgandan keyin nomuvofiqliklar takroran paydo bo‘lishini nazorat qilish tuzatuvchi harakatlar jarayoni samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi;

i) monitoring, shuningdek, agar aniqlangan nomuvofiqliklar laboratoriya standartlarga, o‘zining siyosatiga va o‘zining tartib-taomillariga muvofiqligi yuzasidan jiddiy shubha uyg‘otishi aniqlansa, qo‘shimcha auditlarni talab qilishi mumkin.

G 8.8 Ichki audit (A variant)

G 8.8.1 ISO/IEC 17025 standartining 8.5.1-8.5.3-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) Laboratoriyaga nomuvofiqliklarni aniqlash va bartaraf etish hamda boshqaruv tizimini yaxshilashni davom ettirish uchun ushbu faoliyatga alohida e’tibor berish tavsiya qilinadi;

b) agar Markaz tomonidan bajarilgan baholash natijalari tizimli va jiddiy chetga chiqishlarni aniqlasa, ichki auditlarni samarasiz deb talqin qilish mumkin;

c) ichki auditlar bir yilda kamida bir marta o‘tkazilishi tavsiya qilinadi, aks holda laboratoriya katta oraliqlarni asoslash uchun jiddiy sabablarni taqdim etishi kerak;

d) “Audit dasturi” laboratoriya albatta bajarishi kerak bo‘lgan harakatlar rejasi va grafigi mavjudligini taqozo etadi;

e) ichki audit quyidagi shartlar bilan ichki yoki tashqi xodimlar tomonidan o‘tkazilishi mumkin:

- kirish va yakuniy yig‘ilishni laboratoriya o‘tkazadi;

- laboratoriya auditorlik guruhi audit o‘tkazilishi kerak bo‘lgan soha va laboratoriya ishlarini bajarish usullari uchun kompetentligini kafolatlashi kerak;

- auditlar samarali.

f) auditorlik guruhlariga berilgan vakolatlar audit o‘tkazilishi kerak bo‘lgan faoliyatning aniq turidan qat’i nazar auditorlarni tayinlash paytida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishi tavsiya qilinadi;

g) Laboratoriyada quyidagining isboti bo‘lishi kerak:

- standartning barcha talablari ichki audit davri mobaynida tekshiriladi;

***Izoh:** Ichki audit davri – bu ushbu davr mobaynida laboratoriya standartning barcha talablari representativ auditini va tegishli laboratoriya faoliyatining barcha turlarini bajarishi kerak bo‘lgan vaqt davri. U akkreditatsiya davri davom etadigan davrdan ortiq bo‘lmasligi kerak (biroq u albatta akkreditatsiya davri bilan vaqtincha mos kelishi zarur emas).*

- akkreditatsiya tadbiriq etiladigan barcha texnik sohalar bir yilda kamida bir marta akkreditatsiya davridan o‘tadi;

h) Audit yozuvlari tekshirilgan talablar, jalb qilingan xodimlar, hujjatlar va tekshirilgan yozuvlar, shuningdek, tekshirilgan laboratoriya faoliyatining identifikatsiyasini o‘z ichiga olishi kerak;

i) Markaz tomonidan birinchi marta baholash davomida Laboratoriyada qabul qilingan tartib-taomilga muvofiq Laboratoriya menejmentning amaldagi tizimini baholash uchun o‘tkazilgan ichki audit natijalarini baholash uchun baholash bo‘yicha guruhga taqdim etishi kerak.

G 8.9 Rahbariyat tomonidan tahlil qilish (A varinat)

G 8.9.1 ISO/IEC 17025 standartining 8.9.1-8.9.3-bandlari talablari quyidagilar hisobga olingan holda to‘liq qo‘llaniladi:

a) rahbariyat tomonidan tahlil qilishni bir yilda kamida bir marta o‘tkazish tavsiya qilinadi. Aks holda laboratoriya katta oraliqlarni asoslash uchun jiddiy sabablarni taqdim etishi kerak;

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY AKKREDITATSIYA TIZIMI

**Sinov va kalibrash laboratoriyalarini
akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha
qo‘llanma**

O‘ZAK.R-08**Sahifa: 21/22****Tahrir: 03-00****Joriy etish sanasi: 06.10.2025**

b) rahbariyat tomonidan tahlil qilish quyidagi hollarda laboratoriya rahbariyati tomonidan o‘tkaziladi:

- tayinlash, kim, qachon va buni qanday amalga oshirishi bo‘yicha tashabbus ko‘rsatadi;
- jarayon ustidan kuzatish uchun mas’ul shaxsni tayinlaydi;
- natijalarni tahlil qiladi va xulosalarni shakllantiradi yoki tasdiqlaydi;

c) Tegishli xulosalarni laboratoriyaning barcha xodimlariga oshkor qilish tavsiya etiladi.

